

5 – SON / 2023 - YIL / 15 - YANVAR

**«YOSH FUTBOLCHILAR TAYYORLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI
VA FUTBOL TEKNIKASI»**

Yuldashev Izzat xudayshukurovich

Qoraqalpog'iston respublikasi Beruniy tumani 46 -maktab jismoniy tarbiya fani o'qituvchisi

Annotatsiya: *Jismoniy madaniyatga ega komil insonni tarbiyalashdek muqaddas vazifani bajarishda barcha o'quv yurtlari ta`lim tizimida yosh avlodni jismoniy baquvvat irodali chaqqon vatanparvarlik ruhida tarbiyalab voyaga yetkazishda sport mashg'ulotlarining roli katta. Ushbu maqolada "Futbol" orqali bolalarga jismoniy madaniyatni shakllantirish, hamda futbol mashg'ulotlarini tashkil etish haqida fikr almashiladi. Shuningdek futbol o'yinining yosh xususiyatlariga bog'liq ravishda texnik va taktik doirasi keng o'rjaniladi.*

Kalit so'zlar: *taktik, chaqqonlik, epchillik, darvozabon, zaxira o'yinchisi, texnika, jamoaviy xarakter, o'yin faoliyati, kompleks.*

Kirish

Futbolchilarni futbolga o'rgatish va takomillashtirishning asosiy shakli mashg'ulot hisoblanadi. Futbol – jamoaviy o'yin, shuning uchun o'quv mashg'ulotlari asosan jamoaviyidir.

Mashg'ulotga qo'yiladigan talablar:

- Mashg'ulotda qo'yilgan vazifa bajarilishi lozim;
- Mashg'ulot intizom va mehnatsevarlikni tarbiyalashi lozim;
- Mashg'ulotni shunday rejalamshirish kerakki, futbolchilar harakat ko'nikmalarini va sifatlarini ongli ravishda egallasinlar;

- Mashg'ulot yagona o'quv- mashg'ulot jarayonining bo'limi bo'lishi kerak;

Mashg'ulotning tuzulishi uch qisimdan iborat. Mashg'ulot qisimlarining vazifalari:

- Tayyorlov qism – organizmni asosiy ishga tayyorlash; Asosiy qism tehnik usullarni o'rgatish va takomillashtirishga, taktik harakatlarga, jismoniy sifatlarni rivojlantirishga, ruhiy tayyorgarlikni va ahloqiy va irodaviy sifatlarni yaxshilashga qaratilgan bo'lishi kerak;

- Yakunlovchi qism organizmni mashg'ulotdan oldingi holatiga keltirish lozim.

Mashg'ulotlar o'zining maqsadi, vazifasi va uslubiyati bo'yicha kompleks va tematik mashg'ulotlarga bo'linadi.

Tadqiqot va metologiya.

Kompleks mashg'ulotlar yillik sikl mashg'ulotlarining hajmida birinchi o'rinda turadi. Bu mashg'ulotlar barcha tayyorgarlik turlari rivojlantirishini amalga oshirish vazifalarini bajaradi.

Kompleks mashg'ulotlarda tayyorgarlik turlarining uyg'unligi:

- jismoniy, texnik, taktik;

- jismoniy, tehnik;

- texnik- taktik;

Tematik mashg'ulot.

Tematik mashg'ulotlar yillik sikl mashg'ulotlarining umumiy hajmida kamroq vaqtini qamrab oladi. Ammo ular tayyorgarlikning turli bosqichlarida o'z o'rniiga ega bo'lishi lozim:

a) jismoniy tayyorgarlik bo'yicha mashg'ulot mazmuni umumiy va maxsus jismoniy sifatlarni rivojlantirishga qaratilgan mashqlardan iborat. Jismoniy tayyorgarlik mashg'ulotlarining ko'p qismi tayyorlov davrida o'tkaziladi.

b) Texnik tayyorgarlik bo'yicha mashg'ulotlar o'yinning barcha tehnik usullarini o'ziga qamrab oladi. Texnik elementlarga o'rgatish va takomillashtirish bilan bog'liq mashg'ulotlar barcha tayyorgarlik davrlarida olib boriladi

c) taktil tayyorgarlik bo'yicha mashg'ulotlar individual,guruhi va jamoaviy taktik harakatlarga o'rgatish va takomillashtirishga yo'naltirilgan mashqlar yig'indisidan iborat bo'ladi. Taktik tayyorgarlik bo'yicha mashg'ulotlar tayyorlov davrida (mahsus tayyorlov, musobaqa oldi) va musobaqa davrida o'tkaziladi.

Futbol o'yinining jamoaviy harakteri o'yinchilarning o'zaro harakatlariga yuqori talablar qo'yadi. Shuning uchun futbolda mashg'ulotlar asosan, guruhi mashg'ulotlar shakliga ega. Guruhi mashg'ulotlarda o'zaro harakatlar, texnik usullarni soddallashtirilgan va murakkab sharoitlarda, minimal va maksimal darajada o'yin sharoitiga yaqinlashtirilgan holda bajarish vazifalarini hal etildi. Guruhlimashg'ulotlarda musobaqa vazifalari samarali tarzda yechiladi, jamoaviy ruhda tarbiyalanadi.Individual mashg'ulotlarda futbolchining mahorati va individual xususiyatlari takomillashadi. Individual mashg'ulot futbolchining tayyorgarligini nazorat qilishni osonlashtiradi.Individual mashg'ulotlarining maqsadi – futbolchilar tayyorgarligini takomillashtirish sur'atini tezlashtirish.Individual mashg'ulotning vazifalari:

- harakat sifatlari va ko'nikmalarini takomillashtirishda mutaxassislikning individual xususiyatlarini hisobga olish;

- jismoniy, texnik, taktik tayyorgarlikdagi kamchiliklarni to'g'irlash;

- mashg'ulotlarda majburiy tanaffuslar oralig'ida yo'qotilgan sifatlarni tiklash;

- texnik usullar va shahsiy sifatlarni takomillashtirish;

- bajarilishi qiyin bo'lgan texnik elementlarni takomillashtirish.

Tadqiqot maqsadi: Ushbu metodik tavsiyads istiqbolli va iqtidorli futbolchilarni tanlash va

tayyorlashning samarali tizimini yaratish, milliy terma jamoalar va professional futbol klublari uchun sifatlari sport zaxirasini shakllantirish, xalqaro talab va standartlar asosida futbol bo'yicha trener va hakamlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish maqsadida yozildi.

Ta'lrim va mashg'ulotning vazifalari.Futbolda tashkil qilingan mashg'ulotlar jismoniy tarbiya tizimi oldida turgan vazifalarni hal qilishga qaratilgandir. Mashg'ulotning asosiy mazmuni kishini mutanosib kamol toptirish, uning ijodiy mehnat qilish va Vatanni himoya qilish uchun zarur bo'lgan ma'naviy hamda jismoniy qobiliyatini har tomonlama rivojlantirishdan iborat bo'lishi kerak.Biroq futbol amaliyotida ba'zan yuksak natijalar ketidan quvib, ta'lrim va mashg'ulotning sog'lomlashtirishga yo'naltirilgandek tomoni, ya'ni tarbiyaviy xrakter kasb etishi esdan chiqarib qo'yiladi. Mashg'ulotga bunday bir tomonlama yondashish, odatda noxush oqibatlarga olib keladi. Futbolchining nihoyatta sog'lom, jismonan yahshi rivojlanganligi yuksak axloqiy-irodaviy fazilatlari futbol mahoratini egallab olishda asosiy omil bo'lib xizmat qiladi.Futbolchilarning ta'lrim va mashg'ulot jarayonida quyidagi vazifalarni hal eishi lozim:

- a) Sportchilar organizmining (nafas olish, yurak qon-tomir, va boshqa sistemalar) funksional imkoniyatlarini kengaytirish;
- b) Sportchining ishchanlik qobiliyatini saqlash va oshirish;
- c) Sport sohasiga oid bilimni kengaytirish hamda gigiena va o'z-o'zini nazorat qilish malakalarini hosil qilish;
- d) Mehnatsevarlik, intizomlilik, onglilik, faollik hislatlarini tarbiyalash.

Mashg'ulot jarayonida bu vazifalarni izchillik bilan hal qilish yuksak sport natijalarga erishish uchun inson organizmining g'oyat katta imkoniyatlaridan to'laroq foydalanishimkonini beradi.Raqobatchi jamoalar mahorati darajasining uzluksiz o'sib borishi futbolchilar tayyorlashga bo'lgan talablarni yil sayin har tomonlama oshirib borish zaruratini tug'dirdi. Futbolchilar tayyorlashga qo'yilayotgan yuksak talablarning to'la-to'kis bajarilishi mashg'ulotning pedagogik prinsplarini izchil amalgam oshirish va birinchi navbatda, uning jarayonlarini ilmiy boshqarish qonuniyatlariga og'ishmay amal qilish yo'li bilan ta'minlanadi.

Futbolchilarni tanlashda texnik va taktik tayyoragarlikni ahamiyati.

Yosh futbolchilarni tanlash yosh, kelajagi porloq futbolchilarni tayyorlash kamayib ketganligini sabablaridan biri bu maxsus sinflar va tayyoragarlik guruhlari rahbarlari tomonidan bolalarning iqtisosli ravishda futbol bilan shug'ullanish uchun tanlab olinayotganligi hamda tanlash uslubiyatida bilishning sayozligidir.Yuqori sport natijasiga hamma ham erishavermaydi. O'zbek va chet elda yuqori natijalarga erishgan futbolchilar biografiyasи bilan tanishsak (Pele, Maradona, G.Krasnitskiy, A. Abduraimov, M.An, V.Ffyodrov, M.Qosimov) shuni bilamizki, ular yoshlik davrida o'z tengdoshlaridan o'z qobiliyatları bilan ajiralib turishgan.Futbolchilarni tanlash o'quv-mashg'ulot jarayonining muhim va uzviy qismidir, chunki u sport tayyoragarligining asosiy vazifasini hal etishga – yuqori sport natijalariga erishishga yordam beradi.Futbolda tanlash faqat natjalarning ancha yuqori darajada bo'lishiga emas, balki shug'ullanuvchilarning bir hil tarkibda bo'lishini ham ta'minlaydi, bu esa o'qitish o'rgatish natijalariga ijobiy ta'sir etadi. Tanlashga yetarlicha baho bermaslik yoki uning

5 – SON / 2023 - YIL / 15 - YANVAR

uslublarini mukammal bo'lmasligi, odatda tuzatib bo'lmaydigan zarar keltiradi. Ko'pchilik bolalarning bolalar – o'smirlar sport maktablarini tashlab ketishi (bu o'qitishning turli bosqichlarida sodir bo'ladi) bunga misol bo'la oladi.

Shug'ullanuvchilar asosiy texnik-taktik usliblarni egallab, muayyan tayyorgarlik bosqichiga yetganliklaridagina, ularning qobilyatini baholash mumkin.

XULOSA.

Yosh fuutbolchilarni o'quv mashg'ulotlarini rejorashtirishda futbol bo'yicha o'quvchilarini harakatini,mashg'ulotlarini rejorashtirishda o'quv mashg'ulotlarini tashkil qilish muhim ahamiyat kash etadi.Shug'ullanuvchilarni asosan mashg'ulotlarda jismoniy sifatlariga katta e'tibor berish kerakligini bilib oldik.Bolalar o'smirlar sport tartibi trenirovka mashg'ulotlarini o'rganishda dastlab respublika hukumati tomonidan chiqarilgan dasturiy me'yoriy talablar O'zbekiston Respublikasi birinchi prizidenti I.A Karimovning asarlari malakaviy ishimizning asosiy yo'nalishlarini belgilab beradi.Ushbu maqolada Shug'ullanuvchilarni sog'lig'ini mustahkamlashda mashg'ulotlarning jismoniy tarbiya tizimida tutgan o'rni sport mashg'ulotlarining maqsadi, vazifalari shug'ullanuvchilarning tayyorgarlik holatlari sport tayyorgarligining texnik-taktik, jismoniy integral, nazariy, ruhiy, ma'naviy tayyorgarliklari jismoniy sifatlarini tarbiyalash, kuch, tezkorlik, egiluvchanlik, chaqqonlik, chidamlilik sifatlarining rivojlanishi o'rganildi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining —Jismoniy tarbiya va sport to'g'risidagi qonuni. Toshkent, 5 sentabr 2015 yil. 174 – son Xalq so'zi gazetasи.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining —Futbolni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi qarori.Toshkent.16 mart 2018 yil.PQ-3610.—O'zbekistonda futbolni rivojlantirishni mutlaqo yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risidagi farmon.Toshkent. 4 dekabr 2019 yil. PF-5887-son.
3. R.I.Nurimov. —Futbol nazariyasi va uslubiyati. Darslik. ITA-PRESS.Toshkent. 2015 yil. 342 b.
4. R.I.Nurimov, Abidov Sh.U, Nurimov Z.R, S.R.Davletmuradov. —Sport va milliy o'yinlar (Futbol).Darslik.ITA-PRESS. Toshkent. 2015 yil. 211-248 b.